



HARBIYLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSALARI KURSATLARINI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYASHDA JADIDCHILIK NAMOYONDALARINING O'RNI

Haydarov G'.M.

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Tayanch so'zlar: jadid, jadidchilik, harbiy vatanparvarlik, motivatsiya, millat, e'tiqod.

Ключевые слова: джадид, джадидизм, военный патриотизм, мотивация, нация, вера.

Key words: jadid, jadidism, military patriotism, motivation, nation, faith.

Bugungi dolzarb siyosiy to'qnashuvlar avj olgan bir zamonda zamon talabi bo'lib qolayotgan ko'ksida vatan tuyg'usi barq urayotgan yoshlar ayniqsa harbiy sohaga o'zini bahshida qilgan, ko'nglida harbiy vatanparvarlik tuyg'usi yuksak bo'lgan kursant va askarlar, safdor va serjant-u, ofitserlarni tarbiyalash hozirgi vaqtda o'z so'zini aytmoqda.

Harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarida kursantlarning ongida harbiy vatanparvarlikni singdirish orqali xalqimizning tinch hayoti va mamlakat havfsizligi kafolati, mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni yangilash yo'liga qadam qo'ygan Yangi O'zbekiston mustaqiligini qo'riqlaydigan Qurolli Kuchlarimizning tarixiy vazifasini to'laqonli bajarish sanaladi. Harbiy vatanparvar avlod bu - har bir yosh avlod milliy ma'naviy-siyosiy, psixologik va jangovar xislatlarga ega bo'lishi, Vatan himoyachisi majburiyatini chuqur anglaganlik holati tushuniladi. Bu esa O'zbekiston Respublikasi turli faoliyatdagi va Qurolli Kuchlarida hizmat qilishga tayyorlash masalalarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi.

Harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarida taxsil olayotgan kursantlarda harbiy vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish uchun tinch va jangovar vaziyatdagi harbiy xizmat sharoitlarini o'quv mashg'ulotlarini olib borish real harbiy vaziyatga yaqin bo'lgan psixologik sinovlar bilan bir qatorda tarixni bilishi, tarixni bilish orqali vatanparvarlik ruhi yanada yuksalishi, vatanparvarlik ayniqsa harbiy vatanparvarlik ruhini o'zida jo qilgan askar vatan

himoyasi uchun har narsaga tayyor turishi muhim ahamiyat kasb etishi sir emas. Zotan tariximizning zarbdor jadidchisi Abdulla Qodiriy ta'бири bilan aytganda "Moziyga qaytib ish ko'rmoq hayrlik, deydilar".[1]

Bejizga fikrimizni yuqoridagi nasihat bilan davom ettirmedik. Bizning tariximiz uzoq o'tmishga egaki yoshlarimiz hozirgi zamon tili bilan aytganda "motivatsiya" oladigan jihatlarga boy bobolarimiz va ular bilan bog'liq hodisalar juda ko'p. Shulardan misoli tariqasida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yurtimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan jadidchilik harakati to'g'risida va ularning faoliyati kursantlarimizning harbiy vatanparvarlik ruhini shakllantirishda o'zining yuksak o'rni ega desak mubolag'a bo'mas. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev ta'бири bilan aytganda– "Yangi O'zbekiston tushunchasida mujassam bo'lgan xalq orzusi tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida millatning yetuk vakillarini uni ro'yobga chiqarish yo'lida amaliy harakatlarga undab keldi.... Bu orzu Behbudiy va Avloniy, Xamza va Munavvarqori, Fitrat va Cho'lpon, Abdulla Qodiriy va Usmon Nosir kabi minglab jadid bobolarimizni uyg'otdi. Ularning xalq erkinligi va saodati yo'lida ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amallari uchun ulkan ma'naviy omil bo'ldi. Bu orzu ma'naviyat va ma'rifatni odamni nafaqat komillikka, erkin va farovon turmushga etaklovchi, balki xalqni milliy mustaqillikka eltuvchi beqiyos kuch sifatida anglab yetish imkonini berdi." [2]

O'tgan asr boshida Chor Rossiyasi bosqini davrida Turkiston hududida milliy ozodlik harakatlarini olib borgan ijtimoiy guruhlarining yagona bir maqsad yo'lida birlashishi jadidlar faoliyatini keltirib chiqardi. Jadid atamasi arabchada "yangi" ma'nosini bersada jadidchilik harakatining asosiy maqsadi jamiyat taraqqiyoti uchun lozim bo'lgan barcha sohalarda yangi inovatsion g'oyalarni joriy etish bilan bir qatorda yoshlar tarbiyasida harbiy vatanparvarlikni sigdirish orqali miliy ozodlikka, yurtida til birligi, mafkura birligiga erishishga intilishgan.

XX asrning boshlarida Toshkent, Buxoro, Samarqand, Xiva, Farg'ona vodiysi va boshqa shaharlarda aholining ziyoli qatlami asosida shakllangan millatniozodlikka erishishi uchun intilgan jadidchilik harakati, bu maqsadgaxalqning milliy mafkura vajiymoiysavodxonlik darajasini oshirish orqaligina amalga oshirish mumkinligini anglashilgach, Turkistonbo'ylab yangiusul maktablarining ochilishigakeng e'tibor qaratildi. Ko'zlangan maqsad esa, mustaqillik edi. Shuning uchun am, jadidlar dunyo hamjamiyatida bo'layotgan yangiliklar va islohotlarni Turkiston hududiga targ'ib qilish, ulardan foydalangan holatda yangi avlodni savodli qilish yuzasidan turli ishlarni amalga oshirishni o'zlarining asosiy maqsad deb bilardilar. Bu yo'lida



ular yoshlarni qisqa vaqt ichida savodini chiqarish, dunyoviy fanlar, fizika, kimyo, arifmetika, geografiyaga oid bilimlardan xabardor etish, Munavvar Qori Abdurashidxonov va boshqa jadidchilar eng qiyin damda ham “O‘zbek ziyoli bolalarini Germaniyaga yuborib o‘qitishga muhtojmiz. Bolalar o‘qib ilm bilan tahsil olib kelsalar, millatgakatta hizmat qila oladi.”[3:131]degan millatparvar fikrlari bilan talantli yoshlarni chet elga xususan Turkiya va Germaniyaga tahsil olish uchun yuborishpirovardida esa Turkiston xalqining ozodligiga va mustaqiligiga erishishga intilishgan.

O‘zbek xalqini rivojlangan xalqlar bilan ko‘rishni orzu qilgan, Bu yo‘lda faoliyat yuritgan buyuk jadidchilar Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Shakuriy, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Farg‘ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho‘lpon, Is‘hoqxon Ibrat, Xivada Polvonniyoz hoji Yusupov, Boboohun Salimov va boshqalar keng tarzda faoliyat yuritganlar. Ushbu kishilar jamiyat kelajagini oldindan ko‘ra bilgan va jamiyatni o‘rta asrchlik illatlari, madaniy qoloqlik va musatmlaka zulmidan, xurofotdan ozod etish, xalqni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish milliy hur davlat bunyod etish uchun ulkan jasorat va vatanpararlik nomoyon etganlar. O‘sha davrda Munavvar Qori Abdurashidxonov aytganlaridek, “Hurriyat berilmas olinur, faqat qon va qurbon ilagina olub bo‘lur” vabunijadidchilaryaxshi anglardilar[3:131].Shu nuqtai nazardan milliy ozodlik uchun yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali intildilar. Ular Turkistonni birlashtirish g‘oyasini maktablar ochish, umuman ziyo tarqatish orqali targ‘ib eta boshlaydilar. Ular millatning kamolotini yuksaltirish, uning qadr-qimmatini yerga urishga yo‘l qo‘ymaslik borasida katta ishlar qilganlar. Ma‘rifatchi jadidchilar og‘ir moddiy qiyinchiliklar, g‘oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay, millatning ma‘naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab, mas‘uliyatli burilish davrlarida millatning milliy ongini yuksaltirish, milliy iftixor to‘yg‘usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o‘z zimmalariga oldilar. Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori va boshqa millat uchun jonkuyar jadidlar maktablar ochar, ularda o‘zlari dars berar, o‘quv qo‘llanmalari yozar, nashr etar va bu yo‘lda jonbozlik ko‘rsatar edilar. Bu yo‘lda hatto o‘z mablag‘larini ayamaganlar

Jadidshunos olim B.Qosimov jadidlik harakatining xarakter va muddaosini Jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta olganligi, mustaqillik uchun kurash olib borganligivva Turkiston muxtoriyati bu yo‘ldagi amaliy



harakatning dastlabki natijasi bo'lganligi, maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqqanligi bilan izohlaydi.[4]

Jadid bobolarimiz badiiy ijod bilan birgalikda yurt ozodligi, farovonligi uchun kurashishdek siyosiy masalarda ham faol bo'ldi. Bu ular ijodining bosh g'oyasiga aylandi. Bir so'z bilan aytganda: millat ziyolilarining Turkiston xalqiga ma'rifat tarqatishdagi xizmatlari beqiyosdir. Ular ma'naviy-ma'rifiy ruhdagi o'tkir publitsistik maqolalari va asarlari bilan millatni uyg'otishga, jaholat iskanjasidan ma'rifat yuksakligiga olib chiqishga intilganligi jadidchilarning qalbidagi harbiy vatanparvarlikni jo'sh urganligidandir.

Xulosa. Yuragi vatan deb urgan jadidchibobolar Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Fayzullo Xo'jayev, So'fizoda, Tavallo, Ishoqjon Ibrat kabilar g'oyat og'ir sharoitlarda o'zlarining vatan taraqqiyoti vamustaqilligi uchun harakat qilganligi nafaqat harbiylashtirilgan ta'lim muassasalari kursantlarining balik yurtimiz yoshlarining yuragida harbiy vatanparvarlik tuyg'ularini jumbushga keltirishi haqiqatdir. Bugunda ma'rifatparvar-jadidchilarning bebaho asarlari, ilmiy, nazmiy va nasriy meroslari ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g'oyalari o'zbek xalqining ma'naviyat va ma'rifatini, milliy qadriyatlar va ongini yuksaltirish yo'lida xizmat qilib, avlodlar qalbidagi Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini bahsh etadi. Har bir yurtim deb yongan askar jadidlar me'rosini o'rganish orqali qalbidagi Vatanga muhabbat, imon e'tiqod, mas'uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik, ilmga ishtiyoq va madaniyat ko'nikmalari shakllanishiga shubxa yo'q.

Adabiyotlar:

1. A.Qodiriy, O'tkan kunlar, T., "Mashhur-prees" 2019 yil 4-bet
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston strategiyasi", T. , "O'zbekiston" 2021-yil 18-bet
3. S.Xolboyev. "Munavvarqori Abdurashidxonov", T., Yoshlar nashriyot uyi 2022-yil 131-bet
4. B.Qosimov. "Milliy uyg'onish" , T., "Sharq" 2004 yil 53-bet

РЕЗЮМЕ

Harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarida Jadidchilik harakati namoyondalarining harbiy vatanparvarlik tarbiyasiga oid fikrlari va faoliyati kursantlar ongiga chuqur sigdirib boorish lozim.

РЕЗЮМЕ

Необходимо глубоко внедрить в сознание курсантов идеи представителей джадидистского движения в военнорванных учебных заведениях, относительно воспитания молодежи в духе военного патриотизма.

SUMMARY

It is necessary to deeply inculcate in the minds of cadets the ideas of representatives of the Jadidsm movement in military educational institutions regarding the education of young people in the spirit of military patriotism.